



Abduramanov Xamid Xudaybergenovich,
 “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti direktori o‘rinbosari,
 iqtisodiyot fanlari doktori, professor

ERTA TURMUSH VA ERTA TUG‘URUQ HOLATLARI BILAN BOG‘LIQ MUAMMOLARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada erta nikoh va erta tug‘uruq holatini oldini olish bo‘yicha xalqaro va milliy qonunchilikda qabul qilingan normalar tahlil qilingan. Shuningdek, bu kabi noxush holatlarni bartaraf etish bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasiga asoslagan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: erta nikoh, erta tug‘uruq, xalqaro normalar, milliy qonunchilik, kuzatuv xaritasi, statistika

Аннотация. В данной статье анализируются нормы, принятые в международном и национальном законодательстве по вопросам предупреждения ранних браков и преждевременных родов. Кроме того, для решения подобных ситуаций разработаны научные предложения и практические рекомендации, основанные на опыте зарубежных стран.

Ключевые слова: ранний брак, ранние роды, международные нормы, национальное законодательство, карта наблюдения, статистика.

Annotation. This article analyzes the norms adopted in international and national legislation on the prevention of early marriages and premature births. In addition, scientific proposals and practical recommendations have been developed to solve such situations based on the experience of foreign countries

Key words: early marriage, early childbirth, international norms, national legislation, observation map, statistics.

Kirish. Erta nikoh va erta tug‘uruq Kinson huquqlari bilan uzviy bog‘liq muammo hisoblanadi. Inson huquqlari nuqtayi nazaridan o‘smir qizning homiladorligi – yuzaga kelish holati yoki sabablaridan qat’i nazar, uning huquqlarini cheklaydi.

O‘tgan yillarda O‘zbekistonda “Sog‘lom ona – sog‘lom bola” konsepsiyasi ishlab chiqilib, onalik va bolalikni muhofaza qilishning milliy modeli yaratildi.

O‘zbekistonda davlat va jamiyat oila mustahkamligidan manfaatdor bo‘lib, bu boradagi vazifalar mamlakatning milliy manfaatlari darajasiga ko‘tarilgan.

Olib borilayotgan profilaktik tadbirlar natijasida qizlarni erta turmushga berish bilan

bog‘liq vaziyat oxirgi ikki yilda ijobiy tomonga o‘zgardi. Xususan, 2020-yilda respublika bo‘yicha fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDY) bo‘limlari tomonidan 88 ta erta nikoh holatlari qayd etilgan. Tahlillar 2019-yilga nisbatan erta nikohlar sonining 97,0 foizga kamayganligini ko‘rsatdi. Buning asosiy sabablaridan biri 2019-yil 1-sentabrdan erkaklar va ayollar uchun nikoh yoshi tenglashtirilganligi, FHDY bo‘limlarida faqat tuman, shahar hokimi tomonidan nikoh yoshini 1 yilga kamaytirishga ruxsat berilgan nikohlar qayd etilishi bilan izohlanadi. Lekin amaliyot aksariyat holatlarda erta nikoh yashirin tusga egaligini ko‘rsatadi.

So‘nggi yillarda 18 yoshga to‘lmagan qizlar orasida erta tug‘uruq holatlari ham kamayib,

2019-yilda 1195 ta bunday salbiy holatlar qayd etilgan bo'lsa, 2020-yilda bu ko'rsatkich 959 tani tashkil etgan.

Voyaga yetmagan qizlar, ayniqsa, 13-14 yoshli qizlar orasida erta tug'uruq holatlarining ko'payib borayotgani tashvishlidir. Jumladan, 2019-yilda 6 ta, 2020-yilda esa 9 ta mana shunday ayanchli oqibatlar kuzatilgan.

Erta va istalmagan tug'uruq holatlari, yoshlarning oilaviy munosabatlarga tayyor emasligi, oiladagi ijtimoiy-ma'naviy beqarorlik kabi sabablar chaqaloqlar savdosi jinoyatini ham keltirib chiqarmoqda. Xususan, 2019-yilda 41 ta, 2020-yilda 36 ta bu kabi jinoyatlar sodir etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2020-yil 13-iyuldagi "Erta turmush va erta tug'uruq holatlari hamda oilaviy ajrimlar bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi KQ-105-IV-sonli qarorining qabul qilinishi va unga ilova bilan tasdiqlangan kompleks chora-tadbirlar dasturida¹, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 18-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2020-yil 13-iyuldagi KQ-105-IV-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Erta turmush va erta tug'uruq holatlari hamda oilaviy ajrimlar bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish bo'yicha 2020–2021-yillarga mo'ljallangan kompleks chora-tadbirlar dasturining ijro etilishi to'g'risida"gi KQ-177-IV-sonli qarorida erta turmush, erta tug'uruq muammolari va boshqa salbiy demografik tendensiyalar bo'yicha tadqiqotlar olib borish zarurligining belgilangani mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini bildiradi.

Maqsad va uni asoslash. Tadqiqot maqsadi sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish orqali erta nikoh va erta tug'uruqqa doir ishonchli ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish, bartaraf etish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2020-yil 13-iyuldagi "Erta turmush va erta tug'uruq holatlari hamda oilaviy ajrimlar bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi KQ-105-IV-sonli qarori // <https://lex.uz/docs/5254358>.

Tadqiqot usullari: erta nikoh va erta tug'uruq muammolari bo'yicha adabiyotlar sharhi, normativ-huquqiy hujjatlar statistik tahlili, xorijiy tajribani umumlashtirish va tahlil qilish.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Erta nikoh va erta tug'uruq holatlari bo'yicha xalqaro normalar va milliy qonunchilik tahlili.

Erta nikoh va erta tug'uruq muammosi hamda uni oldini olish borasida O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchilik normalari xalqaro huquq normalari va umume'tirof etilgan prinsiplar talablariga uyg'un ravishda takomillashtirib kelinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi tomonidan 1948-yilgi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1966-yilgi Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi Pakt² hamda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Pakt³, 1962-yilgi Nikohga rozilik berish, nikoh yoshi va nikohlarni qayd etish to'g'risidagi Konvensiya va 1965-yilgi Nikohga rozilik berish, eng kam nikoh yoshi va nikohlarni qayd qilish to'g'risidagi tavsiyalar, 1979-yilgi Xotin-qizlar kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi Konvensiya, 1950-yilgi Inson huquqlari va fundamental erkinliklar to'g'risidagi Yevropa Konvensiyasi, 1989-yilgi Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya, shuningdek, 1995-yilgi Pekin deklaratsiyasi va Harakatlar platformasi kabi hujjatlarni ratifikatsiya qilgan hamda ularning talablari bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda.

So'nggi 5 yil ichida O'zbekiston Respublikasida gender, oila va xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularga turli imtiyozlar berish hamda jamiyat hayotida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan 4 ta Qonun, 20 dan ortiq Prezident Farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 40 dan ortiq qarorlari qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasida 2013-yil 20-martdan boshlab nikoh yoshi to'g'risidagi

² <https://lex.uz/docs/2686000>

³ <https://lex.uz/docs/2640479>

qonun hujjatlarini buzganlik uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik o'rnatilgan. O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeksining 47³-moddasiga asosan, nikoh yoshiga yetmagan shaxs bilan haqiqatda nikoh munosabatlariga kirishgan, uni erga bergan yoki uylantirgan ota-ona yoki ularning o'rnini bosuvchilar hamda diniy marosimni amalga oshirgan shaxslar javobgarlik subyekti bo'lib hisoblanadi. Mazkur shaxslar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarlik uchun jarima tayinlangach, bir yil ichida yana ayni shunday harakatlar sodir etilsa, jinoiy javobgarlikka tortilishi belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 125¹-moddasida nikoh yoshi to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun, yuqoridagi subyektlar uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Sud-huquq amaliyotining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, nikoh yoshi to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish moddasi bo'yicha ko'rilgan ishlarda⁴ ota-onalar va diniy marosim o'tkazgan shaxslar ma'muriy javobgarlikka tortilgan. Ko'rilgan ishlar tahlili qizlarning yoshi 15-17 da ekanligi, huquqbuzarlik sodir etayotgan shaxslarning aksariyati nikoh yoshiga oid qonunchilik talabini buzayotganligidan xabardorligi, sodir etilgan huquqbuzarlikdan pushaymon ekanligini bayon qilgan. 2021-yil 4-martda Namangan shahar sudida ko'rilgan ishda otaning o'zi nikoh o'qiganlik holati, Samarqand viloyati Payariq tuman sudida ko'rilgan ishda Al-Buxoriy masjidida faxriy imom bo'la turib nikoh o'qiganligini ko'rish mumkin. Qoraqalpog'iston Respublikasida ko'rilgan ma'muriy ishlarni o'rganish jarayonida bu hududda o'ziga xos xususiyat sifatida kelinni o'g'irlash marosimi o'tkazilishi, qiz va yigit o'zaro sevgi-muhabbat munosabatlari tufayli olib qochish marosimini kelishib amalga oshirishlari aniqlangan. Sudlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarlik uchun tayinlangan jarima summasi 223.000 so'mdan 1 225 000 so'mgacha ota-onalarga nisbatan tayinlangan bo'lsa, eng katta jarima 2021-yilda

⁴ <https://public.sud.uz/#!/sign/administrative>

Marg'ilon shahar sudida ko'rilgan ishda diniy marosim o'tkazgan shaxsga nisbatan 2 450 000 so'm jarima tayinlangan.

Xulosa o'rnida aytish joizki, erta nikoh holatlarini oldini olish, ma'muriy va jinoiy javobgarlikning rolini yanada oshirishda voyaga yetmagan shaxs bilan turmush qurishning huquqbuzarlik ekanligi haqidagi xabardorlik darajasini oshirish, faqatgina ma'muriy javobgarlik bilan qutulib qolishni cheklash maqsadida jazo sanksiyalarini kuchaytirish, aholining, ayniqsa, xotin-qizlarning huquqiy madaniyati va savodxonligini yuksaltirish, huquq normalarining ta'sirchanligini oshirish lozim.

Xorijiy tajriba. Dunyoda har yili 12 million qiz 18 yoshga to'lmasdan turmushga chiqadi, bu har daqiqada 23 qiz, har uch soniyada bir qiz degani⁵.

Erta turmush qurishning eng yuqori ko'rsatkichi Afrikada kuzatilib, kontinent mamlakatlarida o'smir qizlarning 35 foizi, Janubiy Osiyoda – 30 foizi, Lotin Amerikada – 24 foizi, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikada – 17 foizi, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyoda – 12 foizi 18 yoshgacha turmush quradi⁶. Erta turmush qurishning yuqori darajasi Niger, Markaziy Afrika Respublikasi va Bangladeshda, erta turmush qurganlarning mutlaq soni esa Hindiston, Bangladesh, Efiopiya va Braziliya mamlakatlariga to'g'ri keladi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Nigerda qizlarning 76 foizi 18 yoshgacha, 28 foizi 15 yoshgacha turmushga chiqadi. Mamlakat dunyoda bolalar nikohi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega.

Erta turmush qurish sabablari har bir mamlakatning geografik joylashuvi, madaniyati, urf-odati, dini va aholining bilim va qashshoqlik darajasi kabi omillarning xilma-xilligidan kelib chiqib yondashiladi.

Xorijiy mamlakatlarda erta turmush va erta tug'uruq holatlarining oldini olish bo'yicha

⁵ <https://www.girlsnotbrides.org/about-child-marriage/>

⁶ <https://data.unicef.org/topic/child-protection/child-marriage/>

quyidagi chora-tadbirlar olib borilayotganligini kuzatish mumkin:

1. Xotin-qizlarni o'qitish. Senegalda joylashgan Ayollarning inson huquqlari bo'yicha "Tostan" xayriya jamg'armasi ota-onalar uchun qizlarga ta'lim berishning ahamiyati to'g'risida tushuntirish dasturlarini ishlab chiqqan⁷.

2. Xotin-qizlarning qadr-qimmatini oshirish. Hindistondagi Pachod Sog'liqni saqlashni boshqarish institutida (*Institute of Health Management, Pachod (IHMP)*)⁸ ishlaydigan doktor Ashok Dyalchand qishloqlarda yashovchi o'smir qizlar haqida ilmiy tadqiqot o'tkazgan. U "Rozenberg shkalasi"⁹ yordamida o'smir qizlarning o'zini o'zi qadrlash darajasini baholagan. Unga ko'ra, qizlarning qadr-qimmati qanchalik past bo'lsa, bolalarning turmush qurish xavfi shunchalik yuqori ekanligini ko'rsatgan.

3. Turmush qurgan o'smir qizlarni qo'llab-quvvatlash. "CARE" tashkiloti Efiopiyada erta turmush qurgan qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha muvaffaqiyatli TESFA (amharyi tilida "umid" degan ma'noni anglatadi) loyihasini amalga oshirgan. Ushbu loyiha erta turmush qurgan qizlarga ularning reproduktiv huquqlari, kontratsepsiya va sog'liqni saqlash bo'yicha ma'lumot berishga qaratilgan¹⁰.

4. Ayollarni moddiy qo'llab-quvvatlash. Efiopiyadagi "Bervan Xevane loyihasi"¹¹ misolida ko'rishimiz mumkinki, kambag'al oilalarni echki yoki qo'y bilan ta'minlash ota-onalarga qizlarni erta turmushga berish qarorlaridan voz kechishiga turtki bergan. Qashshoqlikda qolgan oilalarni moddiy qo'llab-quvvatlash yosh qizlarni erta turmush qurish muammosidan qutqarar ekan.

Statistika. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga ko'ra, nikoh yoshi erkaklar va ayollar

uchun o'n sakkiz yosh etib belgilangan¹². 2019-yil 1-sentabrdan erkak va ayollarning nikoh yoshi tenglashtirildi, unga qadar ayollarniki 17 yosh, erkaklarniki esa 18 yosh edi.

Nikoh tuzishni xohlovchi shaxslarning iltimosiga ko'ra, nikoh tuzilganligini qayd etish joyidagi tuman, shahar hokimi tomonidan nikohga kirish yoshi bir yildan ko'p bo'lmagan muddatga kamaytirilishi mumkin. O'zbekiston davlat statistika organlarida fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish bo'limlaridan ro'yxatdan o'tganlarning hisobi yuritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi besh yil (2016-2020-yillar) mobaynida FHDY bo'limlarida rasman qayd etilgan erta nikohlar soni kamayib borgan. Jumladan, 2016-yil respublika bo'yicha tuzilgan erta nikohlar soni 3708 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilga kelib bu ko'rsatkich 88 nafarga teng bo'lgan yoki 97,6 foizga kamaygan. O'zbekistonda rasmiy erta nikohlar sonining kamayishi nikoh yoshining uzayishi, nikoh yoshiga yetmaganlar tuman (shahar) hokimi qarori bilan bir yilga kamaytirishga ruxsat berilganlarning FHDY bo'limida ro'yxatga olinganligi bilan izohlanadi.

Erta nikohlarning kam sonigina FHDY bo'limida ro'yxatga olinishi ushbu hodisa tarqalishining darajasini baholashni qiyinlashtiradi. Bu esa nikohdagi voyaga yetmagan yoshlarning zaifligini oshiradi, chunki ular qonuniy huquqlardan mahrum etilgan bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida tuzilgan erta nikohning uchdan ikki qismi Surxondaryo (24%), Toshkent (16%), Sirdaryo (14%) va Samarqand (13%) viloyatlari ulushiga to'g'ri keladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda mamlakat bo'yicha 959 ta erta tug'uruq holatlari qayd etilgan. Bu ko'rsatkich 2016-yilga nisbatan 29,6 foizga kamaygan. Bu davrda Qashqadaryo viloyatida erta tug'uruq holatlari 3,7 martaga ortgan, respublikaning qolgan barcha hududlarida esa kamaygan.

¹² O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 15-moddasi // <https://www.lex.uz/acts/104720>.


⁷ <https://www.tostan.org/>

⁸ <https://www.ihmp.org/>

⁹ <https://www.norton.com/college/psych/psychsci/media/rosenberg.htm>

¹⁰ <https://www.careinternational.org.uk/who-we-are/about-care>

¹¹ Award-Winning Programme. <https://www.unfpa.org/news/award-winning-programme-gives-ethiopian-girls-safer-transition-adulthood>



1-rasm. O'zbekiston Respublikasida qizlarning yoshi bo'yicha erta tug'uruqlar soni

Ammo tahlillar 2020-yilda erta tug'uruq holatlari 2019-yilga nisbatan respublikaning ba'zi hududlarida ortganligini ko'rsatmoqda. Jumladan, Xorazm viloyatida – 12,0%, Navoiy viloyatida – 5,6%, Farg'ona viloyatida – 2,1% ga ortgan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, erta tug'uruq holatlarining uchdan bir qismidan ortig'i 2 ta hudud: Samarqand (19,7%) va Qashqadaryo (19,0%) viloyatlari ulushiga to'g'ri keladi.

Erta tug'uruqlar bo'yicha qizlarning yoshi tahlil qilinganida 77,1 foizi – 17 yoshda, 17,4 foizi – 16 yoshda, 4,5 foizi – 15 yoshda, qolgan 1,0 foizi 13-14 yoshda qayd etilgan (1-rasm).

1-rasmdan ko'rinib turibdiki, 2016-yilda 13 yoshli qizlar o'rtasida– 4 ta, 2020-yilda – 2 ta tug'uruq holati qayd etilgan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida 14-16 yoshdagi o'smir qizlar o'rtasida tug'uruq holatlari ortib bormoqda. Xususan, 2016-yilda 14 yoshli qizlar o'rtasida– 5 ta tug'uruq qayd etilgan bo'lsa, 2020-yilga kelib bu ko'rsatkich 7 taga yetgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, ushbu 7 ta holatning 3 tasi (42,8%) Toshkent viloyatida qayd etilgan.

15 yoshli qizlar o'rtasida qayd etilgan tug'uruqlar soni 40 nafardan 43 nafarga yoki 7,5 foizga ko'paygan. Bu yoshdagi tug'uruqlarning uchdan bir qismidan ortig'i Qashqadaryo (21%) va Toshkent (14%) viloyatlariga to'g'ri kelgan.

2016-yilda Respublika bo'yicha 16 yoshdagi qizlarda– 163 ta, 2020-yilda – 167 ta tug'uruq holati qayd etilgan. Bu yoshdagi tug'uruqlarning

41,7 foizi 2 ta hudud: Qashqadaryo (25,7%) va Toshkent (16%) viloyatlariga to'g'ri kelgan.

Tahlillarga ko'ra, 17 yoshdagi tug'uruqlarning uchdan bir qismidan ortig'i Samarqand (21,6%) va Qashqadaryo (17,4%) viloyatlarida qayd etilgan.

Yakuniy qism. Erta nikoh va erta tug'uruq holatlarini ilmiy tahlil qilish, sabablarini aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Erta nikoh va erta tug'uruq tarixiy, diniy, etnik, ijtimoiy va axloqiy ildizlarga ega, lekin yaxshi o'rganilmagan ijtimoiy hodisadir. Olib borilgan tadqiqotlar voyaga yetmagan onalar va ularning farzandlari o'rtasida erta onalikning oila, farzandlar va jamiyat uchun real ijtimoiy oqibatlarini aniqlash maqsadida maxsus tadqiqot o'tkazilmaganligini ko'rsatdi. Erta nikoh va erta tug'uruq haqidagi ma'lumotlar, ko'pincha, boshqa tadqiqotlarni o'tkazishda ikkinchi darajali raqamlar sifatida qaralganini ko'rsatdi.

2. Inson huquqlari, jumladan, xotin-qizlar huquqlari, gender tengligi hamda erta nikoh holatlari bilan bog'liq xalqaro talablar va me'yoriy-hujjatlar O'zbekiston Respublikasida milliy qonunchilikka joriy qilingan. Bu borada BMTning talablari doirasida hisobotlar berib kelinmoqda.

3. Erta nikoh holatlarida ixtiyoriylik va majburlash xatti-harakatlari o'rtasidagi farqni aks ettiruvchi normalar va mazkur holatlar uchun belgilangan javobgarlik choralarini tubdan takomillashtirish zarurati mavjud.

4. Erta nikoh holatlarida nikohni qayd etmaslik shar'iy nikohda turmush qurishni aniqlashning konkret mexanizmlari ishlab chiqilmagan.

5. Mahalliy (stereotip) va diniy urf-odatlarining huquq normasidan ustunligi kuzatildi.

6. Qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar va javobgarlikka oid normalar ijrosi qoniqarsiz holatda bo'lib, buning asosiy sababi ishlab chiqilgan normalarning tatbiq etilishi va qo'llanilishida amaliyot nuqtayi nazaridan "ishlamaydigan" normalar mavjud.

7. Chekka qishloq hududlarida qizlarni ta'lim bilan uzviy qamrab olish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali stimulyatsiya holatini yuzaga keltiruvchi mexanizm va davlat bilan nodavlat tijorat tashkilotlarining ijtimoiy hamkorligi yo'lga qo'yilmaganligini inobatga olib, bu borada hukumat va mahalliy hokimiyatlar doirasida vaqtinchalik nizom va qarorlarni ishlab chiqish zarurati bor.

8. Umumiy o'rta ta'lim maktabi, professional ta'lim muassasalari o'quvchilarini tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibiga oid hamkor tashkilotlarning funksiyalarini va monitoringini, javobgarligini aniq belgilovchi normativ hujjat qabul qilish zarurati mavjud.

9. Tadqiqot voyaga yetmagan onalarning homiladorlik va tug'ish vaqtida nafaqat davlatning, balki jamiyatning ham huquqiy, psixologik va ijtimoiy ko'magiga nihoyatda muhtojligini ko'rsatdi. Ularga o'qishni davom ettirishi, mutaxassislikka ega bo'lishi, ijtimoiy stigmani yengishi va o'zini jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida his etishida ham yordam berish zarur.

Tadqiqotda erta nikoh va erta tug'uruq holatlarini bartaraf etish bo'yicha quyidagi **ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar** ishlab chiqildi:

– milliy qonunchilikda xalqaro normalar talablaridan kelib chiqib umumprinsipial holatlar o'rnatilganligiga qaramasdan, konkret vaziyatdagi munosabatlarni tartibga soluvchi normalar yetishmaydi. Jumladan, "erta nikoh" va "erta tug'uruq" tushunchasi, zararli urf-odatlar, nikoh bilan bog'liq bo'lgan diniy marosim talablari kabi normalarni ishlab chiqishga ehtiyoj mavjud. Bunda xalqaro normalar talablari doirasida "bolalar nikohi", "voyaga yetmaganlar va o'smirlar tug'urug'i" tushunchalarini "erta nikoh va erta tug'uruq" o'rniga kirgizish tavsiya qilinadi. Bu holatda qullikka tenglashtirilayotgan "bola huquqlari" tushunchasi yanada oydinlashgan bo'lardi. Me'yoriy-huquqiy hujjatlarning xalqaro talablar doirasida "bola" deb hisoblanuvchi shaxslar va ular bilan nikoh munosabatlariga kirishayotgan shaxslarning toifalari ajratilgan bo'lardi. Chunki "erta nikoh" tushunchasining yuridik ta'rifi bilan "bolalar nikohi" tushunchasining yuridik ahamiyatini e'tiborga olish lozim;

– qizlarni himoya qilish va erta nikohdan himoyalash borasida amaldagi qonunchilikning samarali ijrosini ta'minlash maqsadida huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sud organlarining malakasini oshirish;

– mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlari bilan nikoh yoshini bir yilga kamaytirishning aniq mezon va tartibini belgilash lozim. Ya'ni aynan qaysi holatda nikoh yoshini kamaytirishga ruxsat berilishini aniqlashtirish lozim;

– erta turmush, erta tug'uruq holatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettiruvchi yagona portal tizimini yaratish va ushbu holatlar elektron tarzda aniqlangan hududlardagi o'zgarishlarning kuzatuv xaritasini yaratish. Bunda *Girls Not Brides: The Global Partnership to End Child Marriage* kabi strategik dasturlarda hamkorlik qilish;

– tibbiyot xodimlari, o'qituvchilar va ijtimoiy sohaning boshqa vakillarini erta nikoh tahdidi ostida bo'lgan qizlarni aniqlash bo'yicha o'qitish, bunday turmush qurgan voyaga yetmagan qizlarga

tegishli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash bo'yicha yordam berish;

- maktab dasturiga o'quvchilarning madaniy va yoshidagi xususiyatlarni inobatga olgan holda jinsiy tarbiya hamda jinsiy va reproduktiv salomatlik bo'yicha o'quv kursini joriy etish;

- erta nikohlar bilan bog'liq hamda “Ayollarni kamsitishning barcha shakllariga **barham berish to'g'risida**”gi (AKBK), “**Bola huquqlari to'g'risida**”gi (BHK) Konvensiyalar qoidalarini bajarish bo'yicha huquqni qo'llash amaliyotini nazorat qilish mexanizmlarini joriy etish;

- fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari, diniy tashkilotlar, turli hamjamiyatlar vakillari, diniy rahbarlar va ota-onalarning qizlar, oila va umuman, jamiyat taqdiriga erta nikohlarning oqibatlarini bo'yicha xabardorlik darajasini oshirish;

- erta nikoh va erta tug'uruq tarqalgan hududlarda ta'lim sifatini oshirish, qizlarini maktabga jo'natmayotgan ota-onalar uchun ma'muriy javobgarlik jazo turlarini kuchaytirish va shu hududlarning xususiyatiga xos mahalliy hokimiyat qarorlarini qabul qilish. Qarorlarda hudud xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ta'lim va kasb tayyorgarligi, bandlik masalalariga e'tibor qaratish. Ta'lim grantlarini erta nikoh holatlari ko'p uchrayotgan hudud qizlari uchun kengaytirish va motivatsion ko'rinishdagi subsidiya, grant, nafaqalar bilan kafolatlash;

- mahalla va maktab hamkorligida qo'shma dasturlarni ishlab chiqish, tarbiya soatlarida, televideniya erta turmush qurish oqibatlariga qaratilgan qisqa metrajli videoroliklar, tahliliy davra suhbatlari sonini ko'paytirish. Shuningdek, juma masjidlarida farzandlarni, ayniqsa, qizlarni oliy ta'limga berish haqida va erta turmush qurishning salbiy jihatlariga qaratilgan ma'ruzalarni tashkillashtirish;

- erta nikoh yuqori bo'lgan tuman va shaharlarda erta turmush hamda erta tug'uruq holatlarining oldini olishga qaratilgan manzilli hududiy dasturlarni ishlab chiqish;

- aksariyat erta turmush qurayotganlarning maktab yoshidaligini hisobga olgan holda maktab ma'naviyatchilari va psixologlari, uchastka nozirlari faoliyatiga tanqidiy yondashish. Maktab ma'naviyatchilari va psixologlari maktabdagi erta turmushga moyilligi bor o'quvchilar bilan yakka tartibda ishlashini tashkil qilish. Maktablarning ichki tartib qoidalariga o'quvchilar tomonidan amal qilinishini qat'iy nazoratga olish;

- erta turmush aksariyat holatlarda moddiy yetishmovchilik bilan bog'liq. Bu borada Bangladesh tajribasini qo'llash maqsadga muvofiq. Mamlakatda qizlarni va ularning oilalarini iqtisodiy qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish, ota-onalarini o'qitish, qizlarning sifatli ta'lim olishiga qaratilgan imkoniyatlarni kengaytirish, ularga maktabni bitirgandan so'ng ta'lim yoki o'z biznesini boshlash uchun imtiyozli kreditlar ajratish tizimi yaratilgan;

- shartnoma asosida ta'lim olayotgan kam ta'minlangan oilalarga ta'lim kreditlarini olishda, qayta baholash sharti bilan foizsiz imtiyozli kreditlar berish. Bunda imtiyozdan foydalangan talabalar o'qishni bitirib ishga kirgandan so'ng oylik maoshidan kreditlarini to'lash mexanizmi yaratildi. Bunday imkoniyatning yaratilishi, ushbu imtiyozlar mavjudligini manzilli tarzda targ'ib qilinishi xotin-qizlarni oliy ta'limga qamrab olish ko'rsatkichini yanada oshiradi;

- maktablarning yuqori sinflariga oila psixologiyasi fanini kiritish yoki tarbiya fanida ushbu mavzuga ko'proq o'rin ajratish orqali yoshlarga erta nikoh va uning oqibatlarini haqida nazariy dars o'tish emas, balki malakali psixolog yoki patronaj shifokorni taklif qilish orqali davra suhbatlari shaklida olib borilsa, darslarning qiziq o'tilishiga sabab bo'ladi hamda yoshlarda erta nikohning salbiy oqibatlarini bo'yicha ko'nikma shakllantirilishiga erishiladi;

- ota-onalar tomonidan voyaga yetmagan qizlarini erta turmush qurishga majbur qilish, qizlar qaror qabul qilishda cheklangan kuchga ega ekanligini inobatga olgan holda:

- otalarni o'qitish (otalar bolalar nikohining salbiy oqibatlarini to'g'risida ma'lumot olganda bu

ularning o'z qarashlarini o'zgartirishga, qizlarning huquqlari haqida gapirishga va boshqalarni ham shunga undashga ilhomlantirishi mumkin);

- ommaviy axborot vositalarida erta nikoh va erta tug'uruq holatlarining salbiy jihatlarini aks ettiruvchi roliklar ishlab chiqish va telekanallar, ijtimoiy tarmoqlar, veb-sahifalar orqali yoritish;

- joylarda profilaktika inspektorlari va o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan voyaga yetmaganlar orasida erta tug'uruq holatlari hamda tazyiqqa uchragan xotin-qizlarni himoya qilishga qaratilgan faoliyati samaradorligini oshirish yuzasidan nizoli oilalar o'rtasida profilaktik tadbirlarni amalga oshirish;

- erta tug'uruq va homiladorlik holatlari kuzatilgan hududlarda voyaga yetmagan yoshlarning oilaviy poliklinika, qishloq vrachlik punktlarida onlayn ro'yxatini shakllantirish,

ularning nazoratini kuchaytirish, bu orqali chaqaloqlar savdosining oldini olish;

- o'quv dasturlariga ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini targ'ib etuvchi o'quv seminarlarini kiritish, voyaga yetmagan yoshlarni pornografik mazmundagi kanallarga kirish, materiallarni tarqatishning salbiy oqibatlari xususida profilaktika inspektorlarini jalb qilgan holda o'quv kurslarini tashkil etish (profilaktika kunini haftada kamida bir-ikki marta tashkil etish);

- erta tug'uruq va uning sabablari bo'yicha yangi elektron statistika tizimini ishlab chiqish va davlat statistika qo'mitasining veb portaliga joylashtirish. Shu asosida ushbu muammoning iqtisodiyotga keltirayotgan zarari qiyosiy tahlilini yaratish imkoniyatiga ega bo'lish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2020-yil 13-iyuldagi "Erta turmush va erta tug'uruq holatlari hamda oilaviy ajrimlar bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi KQ-105-IV-sonli qarori // <https://lex.uz/docs/5254358>.
2. <https://lex.uz/docs/2686000>
3. <https://lex.uz/docs/2640479>
4. <https://public.sud.uz/#!/sign/administrative>
5. <https://www.girlsnotbrides.org/about-child-marriage/>
6. <https://data.unicef.org/topic/child-protection/child-marriage/>
7. <https://www.tostan.org/>
8. <https://www.ihmp.org/>
9. <https://www.norton.com/college/psych/psychsci/media/rosenberg.htm>
10. <https://www.careinternational.org.uk/who-we-are/about-care>
11. Award-Winning Programme. <https://www.unfpa.org/news/award-winning-programme-gives-ethiopian-girls-safer-transition-adulthood>
12. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 15-moddasi // <https://www.lex.uz/acts/104720>.